

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**Xorijdagi islom yurtlarining yurtimizga qiziqishi va bu jarayonda
O'QMDN rahbarlarining ta'siri**

Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

arslonbekovnursulton@gmail.com

Annotatsiya : Maqolada Ikkinchı jahon urushidan keyingi ikki qutbli dunyoda siyosiy kuch markazlari arab va Yaqin sharq mamlakatlarida hamda Afrikada keng qamrovli g'oyaviy kurash boshladi shunday bir vaziyatda bu davlatlar nigohi sobiq SSSRdagi diniy siyosat va uning natijalariga qadaldi. SSSR hukumati vaziyat mohiyatiga ko'ra bu davlatlar bilan aloqalarni O'QMDN rahbarlariga topshirdi.

Kalit so'zlar : Al – Azhar universiteti, Sobiq Ittifoq, Tinchlik konferensiyasi, Butunjahon Tinchlik kongressi, Imam al – Buxoriy, Shox Jahon maqbarasi.

Аннотация: В статье центры политической силы биполярного мира после Второй мировой войны начали широкомасштабную идеологическую борьбу в арабских и ближневосточных странах, а также в Африке. По существу ситуации правительство СССР доверило отношения с этими странами руководителям САДУМ.

Ключевые слова: Университет Аль-Азхар, бывший Альянс, Мирная конференция, Всемирный конгресс мира, Имам аль-Бухари, мавзолей Шах-Джасхана.

Abstract: In the article, the centers of political power in the bipolar world after the Second World War began a wide-ranging ideological struggle in the Arab and Middle Eastern countries and in Africa. According to the essence of the situation, the government of the USSR entrusted the relations with these countries to the leaders of the Religious control of the Muslims of Central Asia and Kazakhstan.

Key words: Al-Azhar University, Former Alliance, Peace Conference,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

World Peace Congress, Imam al-Bukhari, Shah Jahan Mausoleum.

Buxoro va Samarqand bu shaxarlarning nomining o‘zi ohangrabo kabi insonni o’ziga jalg qiladi. Ming afsuslar bo’lsinki, ne – ne buyuk daxolarni dunyoga bergen bu shaxarlar 1920 – yildan buyon zulm va mustamlaka asoratini boshidan kechirdi. Ulamolari va dindor avlodidan ayrildi. 1920 -1930 – yillardan boshlangan Xudosizlikka asoslangan sobiq SSSR siyosati o‘z domiga yurtimizni ham tortdi. Natijada ibodat qilgan azizlar otildi, surgun qilindi yoki qamoqqa tashlandi.

1939-1945-yillarda dunyoni titratgan va qariyb 60milliondan ortiq insonlarning o‘limiga sabab bo‘lgan II Jahon urushidan keyin dunyo siyosiy manzarasi keskin o‘zgardi. 1941 – yil iyunda boshlangan SSSR ga qarshi fashizm hujuming bosqlanishi Davlat mafkurasida vaqtincha bo‘lsa ham o‘zgarish qilmay turib urushda mutlaq ustunlikka erishib bo’lmasligini isbotladi. 1942 – yildan boshlangan diniy bag’rikenglik siyosati natijasida dastlab Xristianlikning provaslav cherkovlari faoliyati , so‘ngra islomiy diniy tashkilotlar faoliyati boshlandi. Natijada dastlab, Butun Rossiya Musulmonlari Diniy Nazorati , 1943- yil 20-22-oktyabrda O‘rta Osiyo va Qozog’iston musulmonlari diniy nazorati (keyinchalik boshqarmasi) tuzildi[1;15b].

Diniy nazorat doimiy kuzatuv va Moskvaning e’tibor markazida bo’lsa ham uning oldiga qo‘yilgan diplomatik vazifalarni sharaf bilan uddalaydi. Zero, mamlakat ichidagi musulmonlar uchun eng to’g’ri yo’l mavjud sharoitda markazning ishonchini oqlash va diniy erkinliklarni saqlab qolish va kengaytirish edi.

Afrika va Yaqin Sharqda boshlangan SSSR va G’arb davlarining qarama – qarshi siyosati va mavjud hududlarni o‘z ta’sir doirasiga olishga urinish sobiq SSSR hukumati va I. Stalinni tashqi siyosatda musulmon tashkilotlarga ayniqsa ular orasida eng katta nufuzga ega bo‘lgan O‘rta Osiyo va Qozog’iston musulmonlar diniy nazoratiga suyanishga majbur bo‘ldi. Ikkinci jahon urushidan keyingi ikki qutbli dunyoda siyosiy kuch markazlari arab va Yaqin sharq mamlakatlarida hamda Afrikada keng qamrovli g’oyaviy kurash boshladi shunday

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bir vaziyatda bu davlatlar nigohi sobiq SSSRdagi diniy siyosat va uning natijalariga qadaldi.

1945-yilda Muftiy Eshon Boboxon o‘g‘illari Ziyovuddinxon, Ufa Diniya Nazoratining raisi Abdurahmon Rasuli va Qozondagi Marjoniy nomli masjidning imom-xatibi Qiyomiddin Qodiriy hamrohligida sho‘rolar hukmronligi davrida ilk bor muborak haj safariga bordilar va o‘sha davrdagi Saudiya Arabistoni qiroli Abdul Aziz bin Saudning iltimosiga binoan u bilan uchrashdilar va uning aziz mehmoni bo‘ldilar. 1953-yildan beri to shu kunga qadar muntazam davom etib kelayotgan diyorimiz musulmonlari vakillarining haj safariga borishlari o‘sha tarixiy uchrashuvning samarasidir.

1945 va 1953 – yilgi haj safarlari va Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxonning Qohira, Makka va Madina shaxarlaridagi ilmiy safarlari hamda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar diniy nazorati faoliyati bilan yaqindan tanishish uchun kelgan mehmonlar bilan suhabatlar shuni ko‘rsatdiki, ular sobiq Ittifoq ichidagi musulmonlar hayoti, diniy e’tiqodi haqida yomon fikrlarga ega va bu o‘zaro munosabatlarning izchil rivojida ulkan to‘siq edi.

1953 yilgi hajdan so‘ng o‘z vatanlariga qaytgan ziyoratchilar Misr poytaxti Qohira shahrida to‘xtashdi. Bu yerda ular Al-Azhar universitetiga tashrif buyurishdi. Dindor birodarlar sharafiga universitet rektori Shayx Abdurahmon Toj ziyofat uyshtirdi. U Markaziy Osiyo va Qozog‘iston musulmonlarining ushbu mashhur islom universitetida o‘qishi uchun ko‘p ishlarni amalga oshirdi [1;44b]. Bunday do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘yilishida Shayx Abdurahmon Tojning shaxsiy do’stligi va ezgu fikrli ekanligi aloqalarning shiddat bilan rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxonning XX asr islom olamidagi nufuzi va shaxsiy ta’siri, shubhasiz, ulkan edi. 1947 – 48- yillarda Qohira, Makka va Madina shaxarlarida olgan ta’limi va orttirgan do’st va yaqinlari yordamida arab davlatlari va boshqa musulmon yurtlar bilan bo’lgan diplomatik aloqalarda muhim rol o‘ynaydi.

Muftiy Eshon Boboxon hazratlari 1957-yil tabarruk yoshda bu foniylar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

dunyoni tark etib, boqiy dunyoga rixlat qildilar. U zotning janozalariga O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning barcha o‘lkalaridan minglab musulmonlarning hozir bo‘lishi va Imom Qaffol Shoshiy jivorlariga dafn etilishi uning xalq orasida naqadar hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lganining isboti edi.

1957 – yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasining raisi etib tayinlangan Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon muftiy sifatida din, tinchlik va birdamlik shuningdek, jahondagi boshqa muammolarga bag’ishlangan turli xalqaro anjuman va konferensiyalarda yanada faol ishtirok etadi. Xususan, 1958 – yili u barcha din vakillarining Hindistonda o‘tkazilgan Butunjahon konferensiyasida, 1961 – yili Yaponiyada bo‘lib o‘tgan Diniy arboblar konferensiyasida O‘OQMDN vakili sifatida ishtirok etib, dunyo yana bir yadroviy falokat ostonasida ekanligini va barcha tinlikparvar kuchlar bir bo‘lib unga qarshi turishi kerakligini aytadi[1;45b].

Yaqin Sharq mamlakatlarida agressiya tobora kuchayib,tinchlikka rahna solayotgan, Janubiy-sharqiy Osiyoda AQSh tomonidan harbiy harakatlar avj olgan bir davrda 1970 – yilda Toshkentda muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon tashabbusi bilan “Musulmonlarning tinchlik uchun kurashdagi birligi va hamkorligi uchun” mavzusidagi konferensiya o‘tkazildi.Mazkur anjumanda 25dan ortiq mamlakatdan kelgan vakillar ishtirok etdi[2;95b].

1978-yildagi Haj safarida Jahon Islom Ligasi Bosh kotibi Shayx Muhammad Ali al-Harakon aytgan ediki, musulmonlarimiz o‘zlaridan shunday yetuk rahbar va tashkilotchilarni yetishtirar ekanlar. Hajga boradigan yo'l ularga hech qachon yopilmaydi. Aynan uning ezgu yordami tufayli delegatsiya a’zolari 1978 yilgi Haj mavsumida ko‘plab musulmon tashkilotlari rahbarlari, taniqli islom ulamolari, shuningdek, alohida ziyorat guruhlari rahbarlari bilan uchrashish uchun ajoyib imkoniyatga ega bo‘ldilar. Haj safari davomida Livan Bosh muftiysi Hasan Xolid, Butunjahon islom kongressi Bosh kotibi Inomulloh Xon, Tunis Din ishlari boshqarmasi raisi Mustafo Kamol at-Tarziy kabi musulmon dunyosi yetakchilari bilan do‘stona suhbatlar o‘tkazildi. Chad Respublikasi bosh imom-xatibi Muso Ibrohim, Iordaniyaning Avqof va islomiy ziyoratgohlar vaziri Kamol ash-Sharif.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Gambiya bosh imom-xatibi Muhammad Lamin Ba va boshqalar ular bilan Markaziy Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari o‘rtasidagi samarali aloqalarni keng rivojlantirish va mustahkamlashga hissa qo‘shdilar[1;48b].

Turli mamlakatlardan tashrif buyurgan ziyoratchilar delegatsiyamiz a’zolari bilan uchrashib, Markaziy Osiyodagi musulmonlar ahvoliga katta qiziqish bildirishdi va ularning hayoti haqidagi haqiqatni batafsilroq o‘rganishga harakat qilishdi. Saudiya Arabiston va Misrdan kelgan radio muxbirlari mamlakatimizdagi musulmonlar soni, masjidlarning mavjudligi, imom-xatiblarning faoliyati haqida savollar so’raldi.

1971 – yil bir guruh Marokashlik mehmonlar buyuk Imom al-Buxoriy qabrini ziyorat qilishdi. Qabrnинг o‘zida va uning yonida joylashgan masjidda Marokkodan kelgan delegatsiya a’zolari namoz o‘qishdi. Mahalliy musulmonlarning katta olomoni oldida ular masjidga Marokash hunarmandlarining ajoyib ishlaridan iborat katta gilam va shu vaqt dan beri masjidning ichki qismini bezab turgan qandilni sovg‘a qilishdi. Marokashlik mehmonlarning aytishicha, Imom al-Buxoriy qabrini ziyorat qilgan kun ularning eng baxtli kunlari bo‘lgan[4;12b].

Marokashdan ilohiyotshunoslarning kelishi munosabati bilan bir qator davlat muassasalarida rasmiy qabullar bo‘lib o‘tdi. Mamlakat bo‘ylab safarda delegatsiyaga marokashlik mehmonlarning qolishini matbuot va radio orqali yoritgan jurnalistlar hamrohlik qilishdi. Delegatsiya a’zolariga uyga uchib ketish oldidan tashrifi aks etgan suratlar va filmlar to‘plami sovg‘a qilinganida katta taassurot qoldirdi.

1963-yil 30-martdan 6-aprelgacha O‘OQMDN taklifiga binoan Tunisdagi Ibn Xaldun madrasasi mudiri Shayx Muhammad ibn Arab Annabiya boshchiligidagi Tunis musulmonlari delegatsiyasi mamlakatimizda bo‘ldi. – Bu yerda, – dedi u, o‘tmishdagi barcha tarixiy inshootlar, qo‘lyozma yodgorliklarning naqadar avaylab saqlanayotganini, ta’mirlanayotganini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik[1;54b].

Shayx Mustafo Kamol at-Tarziy mamlakatimizga bir necha bor va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Prezident huzuridagi Islom ishlari bo'yicha bosh boshqarmasi direktori sifatida kelgan. Tashriflarining birida "O'zbekiston musulmonlari" jurnali muxbiri bilan suhbatda: "Bu mening birinchi tashrifim emas, har safar O'zbekistondagi diniy muassasalar va ijtimoiy hayot haqidagi bilimlarim tobora chuqurlashib bormoqda Bu mintqa xalqlarining hayotiga oid yangi narsalarni o'rgandim, ayniqsa, musulmonlarning samimiyligi va do'stona munosabati menga yoqdi. Menimcha, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining faoliyati hozirgi hayot oqimiga mos keladi[5; 86b].

Mehmonlar yurtimiz haqida ajoyib taassurotlar bilan qaytadilar O'zbekistonda shu davrda tashkil etilgan diniy ta'lif muaassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishib, mudarrislar, ustozlar va toliblarning ahillikda diniy soha rivoji va yurt istiqboli uchun qilayotgan sa'y-harakatlariga xayrixohlik bildiradilar. 1963-yilning 17-25-avgust kunlari O'OQMDN taklifiga binoan O'zbekistonda butun Hindiston muftiysi Shayx Atikur-rahmon Usmoniy, Prezident boshchiligidagi Hindiston musulmonlari delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Delegatsiya Toshkent, Samarqand, Buxoro va Dushanbe shaharlarida bo'lib, o'zlarining markaziy osiyolik dindoshlarining hayoti va turmush tarzi bilan yaqindan tanishdi. Tashrifdan so'ng delegatsiya a'zosi, buxorolik Shayx Sand Abdulla, Dehli shahridagi Shohi Jahon maqbara jome masjidi imom-xatibi taklif uchun minnatdorlik bildirib, shunday dedi: "Tashrif davomida biz o'tmish bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ldik. Sizning xalqingizning sovg'asi, bu sayohatning asosiy maqsadi bo'lgan Va endi ishonch bilan ayta olamanki, biz buyuk mamlakatimiz haqida ilgari eshitgan narsalarimizning aksariyati fantastika bo'lib chiqdi, buni biz ko'rgan narsalar butunlay inkor etadi. Musulmonlar bilan bo'lgan uchrashuvlarimiz ularning ma'naviy hayotini cheklab qo'ymasligini, Allohga iymon keltirishlarini hech kim taqiplamasligini aniq ko'rsatdi"[6; 21b].

Shayx Atiqurrahmon Usmoniy Mir Arab madrasasi va joylarda yangi tashkil etilgan masjidlar faoliyatiga yuqori baho beradi va asliyat va turli – tuman fikrlarning ko'pchiligi asossiz ekanligini ta'kidlab, bunday fidoyi xizmati uchun barcha diniy soha mutasaddilariga tashakkur aytadi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xulosa qilib shuni aytish lozimki mamlakatimizda va albatta sobiq SSSR hududida amalga oshirilgan diniy siyosat 1941 – yildan keyin tub o‘zgarishlarga uchradi.Dinga nisbatan shubha va qo’rquv saqlanib qolgani holda tashqi siyosiy kuchlar bilan kelishish va o‘zaro aloqalarni yo’lga qo’yish majburiyati sobiq Ittifoq hukumatini o‘z dahriyona tushunchalarini boshqatdan ko‘rib chiqishga majbur qildi.Natijada, O‘OQMDN tashkiloti tuzildi va uning rahbariyati ilk qadamlarni baynalminal, tinchlikparvar ko‘rinishda tashlab, jahon afkor ommasining ishonch va xurmatiga sazovor bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shamsuddinxon Boboxonov. Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon (Ma’naviyat va ibrat maktabi). – T.,2001. – B.51.
- 2.Zamonamiz ulamolari. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino,2001. – B.95.
- 3.Ibrohimov.A.Muftiylar sulolasi.–Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov,2021.
- 4.Sovet Sharqi musulmonlari.1971-yil №2
- 5.Mustafayeva.N. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati // O‘zbekiston tarixi. –Toshkent 2005.
6. Sovet Sharqi musulmonlari.1963-yil №3